

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomurov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufataxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 16-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABROREK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16





SUV TA'MINOT VA HUDUD GAZ TA'MINOT KORXONALARIDA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLIISH MASALALARI

KOZIMJONOV ABRORBEK

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti, PhD
E-mail: a.kozimjonov@tsue.uz
ORCID:0000-0001-5217-6559

Annotatsiya. Ushbu maqolada suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari atroflicha yoritilib berilgan. Mavzu doirasida xorijiy adabiyotlar xalqaro darajadagi normativ huquqiy hujjatlar o'rganilib, muallif tomonidan daromad va xarajatlar bilan bog'liq jarayonlarni moliyaviy hisobotda tan olish oid takomillashtirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: daromad, xarajat, moliyaviy hisobot, foyda, zarar, shartnoma bo'yicha aktiv, shartnoma bo'yicha majburiyat.

Аннотация. В данной статье всесторонне рассмотрены вопросы признания доходов и расходов в организациях водоснабжения и газоснабжения в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности. В рамках исследования изучены зарубежные научные источники и международные нормативно-правовые документы, а также разработаны авторские предложения и рекомендации, направленные на совершенствование порядка признания операций, связанных с доходами и расходами, в финансовой отчетности.

Ключевые слова: доход, расход, финансовая отчетность, прибыль, убыток, актив по договору, обязательство по договору.

Annotation. This article comprehensively examines the issues of recognizing revenue and expenses in water supply and natural gas distribution enterprises in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS). The study reviews relevant foreign literature and international regulatory documents and, based on the findings, develops improved proposals and recommendations for enhancing the recognition of revenue- and expense-related transactions in financial statements.

Keywords: revenue, expenses, financial statements, profit, loss, contract asset, contract liability.

KIRISH

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – bu moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga samarali moliyaviy va iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan, moliyaviy hisobotni tayyorlashda foydalaniladigan tartib qoidalarni o'zida mujassam etgan standart va izohlar to'plamidir. MHXS'lari Xalqaro Buxgalteriya Standartlari Kengashi (IASB) tomonidan ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi. Kengashning maqsadi investorlar va moliyaviy hisobotlarning boshqa foydalanuvchilariga kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlarini boshqa kompaniyalar bilan o'zaro taqqoslash qobiliyatini ta'minlash uchun standartlar ishlab chiqish iborat.

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotda daromad va xarajat asosiy element bo'lib hisoblanishi barchaga ma'lum. Daromad va xarajatlarni qachon, qanday mezonlar asosida va qanday





tartibda tan olish masalasi bevosita xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijasi bo'lgan foyda yoki zararga ta'sir ko'rsatadi. Daromad va xarajatlarni tan olish masalalari milliy qonunchilikda "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" qonun, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi "Mahsulot (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi" to'g'risidagi 54-sonli Nizom, Soliq kodeksi va boshqa xujjatlar asosida amalga oshirilsa, xalqaro standartlar bo'yicha esa "Moliyaviy hisobotni taqdim etishning konseptual asosi", 15-son "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum" nomli MHXS, 23-son "Qarzlarni bo'yicha sarflar" nomli BHXS, 18-son "Moliyaviy hisobotda axborot taqdim etish va yoritib berish" nomli MHXS kabi asosiy bo'lgan va boshqa standartlarni e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.T.Ergasheva[3], N.B.Abdusalomova[4], A.N.To'rayev[5], S.N.Tashnazarov[6] va boshqalar tomonidan ilmiy ishlarida xo'jalik yurituvchi subyektlarda daromadlar va xarajatlar hisobi hamda daromadni va xarajatlarni tan olishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirishning uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" qonunda buxgalteriya hisobi obyektlari sintetik va analitik hisobda yuritilishi, daromad va xarajat esa buxgalteriya hisobining asosiy obyektlari ekanligi keltirilgan. Daromad va xarajalarni hisobga olishda ushbu qonuning 18 moddasiga muvofiq "Daromad va xarajat to'langan vaqti va pul kelib tushgan sanada emas balki, qaysi davrga taalluqli bo'lsa, o'sha davrida BHMSlarida belgilangan mezonlar asosida aks ettirish lozimligi ta'kidlangan".

Xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati natijasida amalga oshirgan xarajatlarni hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarni aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi ekanligini va subyektning raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-sonli Nizomi ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu nizom buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish maqsadlarida xarajatlarni hisoblashda vujudaga keladigan tafovutlar hisobga olishda qo'llaniladi. Nizom O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun mahsulot (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarni aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilab beradi.

Shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalarida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining ham o'rnini ham beqiyosdir. Chunki, xalqaro darajada moliyaviy natija soliq kodeksidagi soliq bazasini o'garishiga ya'ni chegirilmaydigan xarajatlar natijasida farqliklar kelib chiqishi ma'lum. Qolaversa, daromad, xarajat va foyda bilan bevosita bog'liq bo'lgan 12-son "Foyda solig'i" nomli BHXSni ham amaliy jihatdan qo'llashda ham foydalaniladi.





Soliq kodeksining 42 moddasi muvofiq “Nafni baholash imkoniyati mavjud bo‘lgan taqdirda va bunday nafni baholash mumkin bo‘lgan darajada hisobga olinadigan pul yoki natura shaklidagi iqtisodiy naf – daromad deb tan olinadi”.

Ushbu kodeksining 305 moddasiga muvofiq esa “Xarajat – xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan hisobot davrida amalga oshirilgan, bahosi pul shaklida ifodalangan, iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlagan, tadbirkorlik faoliyatini yuritish, saqlab turish yoki rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunda belgilab qo‘yilgan hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlardir. Shuningdek, soliq solish maqsadlarida, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilik bo‘yicha aktivlar yoki majburiyatlarning qiymati o‘zgarganligi sababli buxgalteriya hisobida aks ettiriluvchi chiqimlar xarajatlar sifatida e‘tirof etilmaydi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini tashkil qilish va bajarish jarayonida buxgalteriya hisobi usullari asosida ekspertlar bahosi, qiyosiy tahlil, kontent va invent tahlil, tizimli va omilli tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

“Moliyaviy hisobotni taqdim etishning konseptual asosi” va 15-son “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum” MHXSga muvofiq esa daromad va xarajatlarning quyidagicha ta‘rif keltirilgan:

“Daromad – bu mulkdorlarning kapitalga qo‘yilmalari bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin hususiy kapital o‘shishiga olib keladigan aktivlarning ko‘payishi yoki majburiyatlarning kamayishidir”.

“Xarajat – bu mulkdorlarning kapitalga qo‘yilmalari bilan bog‘liq bo‘lmagan, lekin hususiy kapital kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning ko‘payishidir”.


Mulkdorlar tomonidan xususiy kapitalga kiritilgan qo‘yilmalar ustav kapitali, qo‘shilgan kapital bo‘lishi mumkin. Lekin, bunday qo‘yilmalar daromad deb qaralmaydi. Daromad ta‘siri xususiy kapitaldagi taqsimlanmagan foyda yoki xususiy kapitalning boshqa komponentidagi o‘shish bilan natijalanadi. Xuddi shunga mos ravishda esa xarajat ta‘siri xususiy kapitaldagi taqsimlanmagan foyda yoki xususiy kapitalning boshqa komponentidagi kamayishi bilan ifodalaniladi.

Yuoqridagi ta‘riflardan ko‘rish mumkinki, xalqaro standartlarga muvofiq xarajatlar “hisoblash usuli” asosida hisobga olinadi. Ya‘ni, xarajat pul mablag‘larining chiqimi vaqtida emas, balki aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning ko‘payishi natijasida iqtisodiy nafning kamayishi davrida tan olinadi. Xarajatlarni e‘tirof etishning asosiy mezonlari sifatida uning iqtisodiy mazmuni, amalga oshirilgan hisobot davriga taaluqliligi, ishonchli baholanishi hamda foydalanuvchilar uchun dolzarbligi va haqqoniy aks ettirilishi talablarini misol keltirish mumkin. Shuni ham aytish joizki, xarajatlarni tan olish masalasi asosan kompleks yondashuvga ega. Sabab, daromadlarni tan olish standartlari bo‘lgani kabi alohida universal yagona xarajat bilan bog‘liq standart mavjud emas. Masalan, zaxiralar bilan bog‘liq xarajalarni hisobga olish 2-son “Zaxiralar” nomli



BHXSda, asosiy vositalarga eskirish xarajatlari 16-son “Asosiy vositalar” nomli BHXSda, aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha xarajatlar 36-son “Aktivlar qadrsizlanishi” BHXSda kabi standartlarda nomoyon bo'ladi.

Daromadni tan olish mezonlarni metodologik asosini va xaridor bilan tuzilgan shartnomadan yuzaga keladigan tushum va pul oqimi harakteri, summasi, muddati va yuzaga kelishi noaniqligi to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi 15-son “Xaridorlar bilan shartnomalardan olingan tushum” nomi MHXS 2018-yil 1 yanvardan boshlab amaliyotga joriy etilgan. Ushbu standartga muvofiq xaridorlar bilan shartnomalardan olingan tushumni amaliyotga tatbiq etish uchun 5 boshqichli modeldan foydalaniladi.



**1-rasm. 15-son “Xaridorlar bilan shartnomalardan olingan tushum”
nomi MHXSga muvofiq tushumni tan olishning
5 bosqichli modeli**

Tushumni aniqlashdagi besh bosqichli modelning **1-bosqichida** shartnoma tuzilganmi yoki yo'qligi aniqlanadi. Shartnoma – bu ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasida qonun bilan himoyalangan huquq va majburiyatlarni keltirib chiqaradigan kelishuv hisoblanadi.

Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha tushumni aniqlashning besh bosqichli modelining **2-bosqichida** subyekt xaridor bilan shartnomada va'da qilingan tovar yoki xizmatlarni baholashi va xaridorga o'tkazish bo'yicha har bir va'dani bajarish javobgarligi (majburiyati) sifatida identifikatsiya qilishi lozim.

Ushbu modelning **3-bosqichida** xaridorlar bilan tuzilgan shartnoma (operatsiya)ning narxi aniqlanadi. Shartnoma narxi korxona tomonidan tovarlarni yoki xizmatlarni xaridorlarga yetkazish evaziga olinishi kutilayotgan summasi tushuniladi. Shartnoma narxi aniqlanayotganda bevosita soliqlar, uchinchi tomonga qaytariladigan summalar inobatga olinmaydi.



Tushumni aniqlash modelining **4-bosqichida** shartnoma narxini shartnoma majburiyatiga taqsimlashdan iboratdir. Shartnoma (operatsiya) narxini taqsimlashning maqsadi - subyekt tomonidan shartnoma narxini har bir bajarish javobgarligiga ya'ni farqli tovar yoki xizmatga, xaridorga va'da qilingan tovarlar yoki xizmatlarni o'tkazish evaziga subyekt olish huquqini zarur bo'lgan tovon summasini aks ettiradigan summada taqsimlanishi hisoblanadi.

Shartnoma narxini shartnoma majburiyatiga taqsimlashning metodologik mohiyati shundan iboratki, shartnoma bo'yicha kutilayotgan umumiy tovon summasi aniqlangan alohida bajarish majburiyatlari o'rtasida nisbiy mustaqil sotish narxlari asosida taqsimlanadi. Ushbu yondashuvda har bir bajarish majburiyati bo'yicha tan olingan daromad summasini mijozga topshirilayotgan Tovar yoki xizmatning alohida iqtisodiy qiymatiga muvofiq ravishda shakllalabntirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, chegirmalar va o'zgaruvchan haq elementlari mavjud bo'lgan hollarda ularni umumiy qoidaga ko'ra barcha bajarish majburiyatlariga yoki iqtisodiy mazmunga ko'ra muayyan bajarish majburiyatiga tegishli tarzda taqsimlash talab etiladi.

Tushumni aniqlash modelining **5-bosqichida** subyekt va'da qilingan tovar yoki xizmatni xaridorga o'tkazish orqali bajarish javobgarligini bajarganda yoki bajarishi bilan tushumni tan oladi. O'tkazish deganda xaridor tovar yoki xizmat ustidan nazoratni olgan payt nazarda tutiladi. Tovar yoki xizmat ustidan nazorat xaridorga muayyan davr mobaynida yoki muayyan vaqt nuqtasida o'tishini bildiradi. Agar bajarish javobgarligi muayyan davr mobaynida bajariladigan bo'lmasa, u holda bajarish javobgarligi muayyan vaqt nuqtasida bajariladigan hisoblanadi.

Daromadlarni tan olishining fundamental metodologik asosini tashkil etuvchi 15-son MHXS "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Kengashi" tomonidan 2018 yil 1 yanvardan kuchga kirgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022 yil 10-noyabrdagi 61-sonli "O'zbekiston Respublikasi xududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyruqqa muvofiq amaliyotga joriy etilish rasman tan olinganligiga qaramasdan tadqiqot obyektida "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar bo'yicha moliyaviy hisobot"da to'liq foylanilmayotganligi aniqlandi.

15-son MHXS larning 5 bosqichli modelining asosiy xususiyatlarni o'rganilib, uni amaliyotda qo'llash uchun amaliy jihatdan ochib berish maqsadida asosiy faoliyatdan olingan daromadni shartnomadagi bajarish majburiyatlari bo'yicha shartnoma narxi asosida taqsimlash, ularning bajarilish muddati va darajasidan kelib chiqib foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotda tan olish, shuningdek ushbu jarayonda yuzaga keladigan shartnoma bo'yicha aktiv va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni moliyaviy hisobotda aks ettirishning takomillashtirilgan tartibi taklif etildi. Ya'ni, ushbu taklif orqali 15-son MHXS bo'yicha 5 boshqichli modelni tadbiq etish tartibini takomillashtirish taklif etildi (e'tibor qaratish lozimki, standartdagi asosiy metodologik asosni o'zgartirish natijasida amaliy natija olish ko'zda tutilmagan).





Tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan korxonalarning amaliyotida daromadni tan olishda ko'p hollarda umumiy shartnoma summasi, "hisobvaroq-faktura" yoki "topshirish-qabul qilish dalolatnomasi" xujjatlari asosiy mezon sifatida qo'llaniladi, ammo shartnoma tarkibidagi alohida bajarish majburiyatlari darajasida tahliliy yondashuv to'liq shakllanmaganligi aniqlandi. Natijada, daromadning iqtisodiy manbasi qaysi majburiyat hisobiga shakllanganligi yoki qanday qismi hali bajarilmagan bilan bog'liqligi hamda bajarish javobgarligi bajarilgan bo'lsada talab huquqiga aylanmaganligi haqidagi ma'lumotlar shaffof tarzda ochib berilmaydi. Shu bois, ushbu taklifning mohiyati shundaki asosiy faoliyatdan olingan daromadni shatnomada yoki boshqa xujjatlarda ko'rsatilgan summalarda emas, balki shartnomadagi alohida bajarish javobgarligi (majburiyati) kesmida e'tirof etish, shartnoma narxini ular o'rtasida taqsimlash, majburiyatlarning bajarish muddati va darajasidan kelib chiqib, MHXS'lari bo'yicha "Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risida"gi hisobotda tan olish, shuningdek ushbu jarayonda yuzaga keladigan shartnoma bo'yicha aktiv va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni "Moliyaviy holat to'g'risida"gi hisobotda iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda aks ettirishdan iboratdir.

Taklifning amaliy jihati ham shundan iboratki, daromadni tan olish faqatgina "Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to'g'risida"gi hisobot bilan chegaralanib qolmasdan, tushumga nisbatan 15-son MHXSga muvofiq 5 bosqichli modelni qo'llash natijasida yuzaga keladigan shartnoma bo'yicha aktiv va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ham ko'zda tutadi.


Shartnoma bo'yicha aktiv – bu subyekning xaridorga yetkazib bergan tovar yoki xizmatlari evaziga olinadigan tovonga bo'lgan, muayyan muddat o'tishidan boshqa sabab asosidagi xuquqdir. Debitorlik qarzdari asosiy farq shundaki, debitorlik qarzi tovonni olish huquqini shartsiz hisoblanadi va uni undirish uchun faqat vaqt talab etadi. Shartnoma bo'yicha aktivda esa tovonga bo'lgan huquq hali to'liq shakllanmagan bo'lib, u qo'shimcha shartlarning bajarilishiga bog'liq bo'ladi.

Shartnoma bo'yicha majburiyat esa - bu subyektga xaridor tomonidan tovonni to'langan tovar yoki xizmatlarni xaridorga o'tkazish bo'yicha tashkilot majburiyatidir. Kreditorlik qarzidan farqi shundaki, kreditorlik qarzi asosan mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar, byudjet va jamg'armalar, ishchi hodimlar va boshqalar oldidagi umumiy qarzdorlikni bildiradi va har doim ham daromadni tan olish jarayoni bilan bog'liq bo'lmaydi. Olingan bo'nakdan farqi shundaki, olingan bo'nak shartnomada nazarda tutilgan hisob-kitob tartibiga muvofiq xaridordan oldindan kelib tushgan to'lov summasini ifodalasa, shartnoma bo'yicha majburiyat esa 15-son MHXS talablariga ko'ra moliyaviy hisobotda bajarilmagan shartnomaviy majburiyatning iqtisodiy ifodasi sifatida tan olinishini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotda aks ettirishning takomillashtirilgan tartibini soddalashtirilgan ko'rinishini quyidagi rasmda keltirilgan.





2-rasm. Shartnoma bo'yicha aktiv va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi

Taklif amaliyotga tadbiiq etganda, shartnoma bo'yicha aktiv va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni alohida iqtisodiy mazmunda ko'rsatish moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga subyektni pul oqimlarini, bajarilmagan majburiyatlari va daromadning kelgusida tan olishning vaqt mezonini bo'yicha tan olishdagi shaffollik ochiqlik darajasini oshadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida asosiy faoliyatdan olingan daromadni bajarish majburiyatlari bo'yicha asosli taqsimlash, ularni bajarilish muddati va darajasiga muvofiq ravishda foyda yoki zarar to'g'risidagi hisobotda ishonchli tan olish, shuningdek shartnoma bo'yicha aktiv va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni moliyaviy hisobotda aniq aks ettirish ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmon (<https://lex.uz/uz/docs/5841063>).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).

3. Ergasheva Shakhlo. The Importance of the Improvement And Convergence of Ias/Ifirs to the National Accounting System of Uzbekistan. "Центр научных публикаций в Узбекистане" (2019).

4. Абдусаломова Н. В. Совершенствование бухгалтерского учета в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности //Архив научных исследований. – 2021. – Т. 1. – № 1.





5. Turaev A. N., Rakhmonov S. S. Improving cash flow statement based on international standards //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – № 5. – C. 1341–1349.
6. Tashnazarov S.N va boshqalar (2018) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Samarqand: SamISI. – 421 b.
7. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'plami // ASSA. IFRS/IAS., 2023-y.
8. Menglikulov Bakhtiyor, Kozimjonov Abrorbek, & Davletov Ikram. (2023). Development of Financial Statements on the Basis of International Financial Reporting Standards. European journal of business startups and open society, 3(9), 48–53. Retrieved from <http://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/2000>.
9. Ergasheva Sh. T., Ikramov Sh. I., Kozimjonov A., Mannapova R.A. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" Darslik. – T.: "IQTISODIYOT", 2023. – 336 bet.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**